

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI**

ARSLANOVA SEVARA KARIMJONOVNA

**“G‘O‘ZANI GENOMLARARO (A_1 , G) DURAGAYLASH VA AD GENOM
ASOSIDA YANGI DONORLAR OLISH”**

03.00.09 – Umumiy genetika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Arslanova Sevara Karimjonovna

G'ozani genomlararo (A_1, G) duragaylash va AD genom asosida yangi donorlar olish5

Арсланова Севара Каримжоновна

Межгеномная гибридизация хлопчатника (A_1, G) и получение новых доноров на основе AD генома21

Arslanova Sevara Karimjonovna

Intergenomic hybridization of cotton (A_1, G) and obtaining new donors based on the AD genome.....41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works45

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI**

ARSLANOVA SEVARA KARIMJONOVNA

**“G‘O‘ZANI GENOMLARARO (A_1,G) DURAGAYLASH VA AD GENOM
ASOSIDA YANGI DONORLAR OLIISH”**

03.00.09 – Umumiy genetika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/B1299 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.genetika.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ernazarova Ziroatxon Abduazimovna
biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy
xodim

Rasmiy opponentlar:

Ubaydullayeva Xurshida Abdullayevna
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Mo'minov Hasan Aliqulovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish
agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.

Dissertatsiya himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « ____ » _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-Yuz p/b. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 264-23-90; faks: (+99871) 264-23-90; E-mail: igebr_anruz@mail.ru)

Dissertatsiya bilan Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-Yuz p/b. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 264-23-90; faks: (+99871) 264-23-90.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil « ____ » _____ dagi raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A. Narimanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, q/x.f.d., professor

I.Dj. Kurbanbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.d., professor

I.T. Qahhorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, q/x.f.d., professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. G‘o‘za dunyodagi tabiiy tola beruvchi eng muhim iqtisodiy ekinlardan biri hisoblanadi. So‘nggi ma‘lumotlarga ko‘ra, *Gossypium* L turkumi 54 turdan tashkil topgan bo‘lib, ulardan 50 tasi yovvoyi va to‘rttasi madaniy g‘o‘za turlari hisoblanadi. Dunyo bo‘yicha paxta ekiladigan maydonlarning 95% ida yetishtiriladigan *G. hirsutum* L. turining genetik bazasini yaxshilash, turli biotik va abiotik ta’sirlarga chidamliligini oshirish dolzarbdir. Avstraliya va afro-osiyo yovvoyi g‘o‘za turlari o‘rta tolali (*G. hirsutum* L.) g‘o‘za navlarini takomillashtirish uchun noyob genlar manbai hisoblanadi. Biroq, ushbu yovvoyi turlar diploid xromosoma to‘plamiga ($2n=26$) ega ekanligi bois, *G. hirsutum* L. tetraploid turi bilan duragaylashda yetarli darajada genetik to‘siqlar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etishda bir-biridan uzoq turlarni turlararo duragaylash, eksperimental poliploidiya, sitogenetika, filogenetika va molekulyar genetika usullarini qo‘llagan holda tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda turli stress omillarga, kasalliklarga va zararkunandalarga genetik jihatidan chidamli bo‘lgan g‘o‘zaning boshlang‘ich manbalari sifatida yovvoyi ajdodlaridan foydalanish, madaniy navlarning genetik potensialini oshirish dolzarb muammolardan biridir. Ayniqsa, turli genomli turlar ishtirokida turlararo duragaylash va eksperimental poliploidiya uslublarini qo‘llagan holda o‘zida noyob belgilarni mujassamlantirgan, kasallik va zararkunandalarga chidamli hamda turli muhitlarga moslashuvchan genotiplarni yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Jumladan, genomlararo duragaylash (G va A_1) natijasida, geografik va genetik jihatdan uzoq bo‘lgan turlar o‘rtasida ham muvofiqlik mavjudligi, pushtli duragaylar olish imkoniyati aniqlangan. *G. herbaceum* subsp. *pseudoaraboreum* kenja turi va f. *harga* shaklining *G. nelsonii* va *G. australe* turlariga filogenetik yaqinligi, subsp. *africanum* esa uzoqligi aniqlangani A_1 va G genamlari asosida yangi donorlar yaratish imkonini beradi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishda ekinlarning yangi navlarini yaratish va ularni keng joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, paxtachilikda genetika va seleksiya sohalarini rivojlantirish, yovvoyi g‘o‘za germoplazma namunalarini seleksiya jarayonlariga tadbiq qilish borasida muhim natijalarga erishilmoqda. Biroq A_1 va G genomli yovvoyi turlar asosida genetik resurslar yaratish bo‘yicha izlanishlar kam o‘rganilgan. Avstraliya yovvoyi turlari va afro – osiyo turichi xilma – xilliklari ishtirokida turlararo duragaylash, sitogenetika, eksperimental poliploidiya va molekulyar genetika uslublari orqali genetik boyitilgan transgressiv shakllar olish hamda ular asosida biotik va abiotik omillarga chidamli yangi navlar yaratish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 17.06.2019 yildagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-sonli farmoni “Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligini rivojlantirish” bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2025 yildagi “Paxta xom ashyosini yetishtirish va sotishda bozor mexanizmlarini qo‘llashni izchil davom ettirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-7-sonli farmoni¹ hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi V– “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Gossypium* L. turkumiga mansub yovvoyi va madaniy g‘o‘za turlari sistematikasi bo‘yicha (Fryxell 1992, Wendel 2010; Wendel va Grover 2015;) kabi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotchilar tomonidan diploid g‘o‘za turlari turli genomlarga ajratilgan (Wendel va Cronn, 2003; Wendel va boshq., 2010; Gai Huang va boshq., 2021; Zhou va boshq. 2022), yovvoyi avstraliya (*G.australe* F.Mull., *G.nelsonii* Fryx., *G.bickii* Prokh.) va afro-osiyo turlari (*G.herbaceum* L.) ishtirokida sintetik duragaylar olish va ularni qimmatli xo‘jalik belgi-xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha Kulkarni va boshq. (2009), Ranjan va boshq. (2012), Chen va boshq. (2014), Liu va boshq. (2015), Wang va boshq. (2018s), Yin va boshq. (2020), Maru va boshq. (2021) tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Mamlakatimizda turli genomlarga ega bo‘lgan yovvoyi g‘o‘za turlari ishtirokida turlararo duragaylash, sintetik donorlar olish va ota-ona belgilarning irsilanishi bo‘yicha tadqiqotlar (Abdullayev A.A. 2006; Sirojiddinov B. 2017; Muminov Kh. 2022; Xidirov M. va boshq. 2023; Namazov Sh. va boshq. 2024) olib borilgan. Yovvoyi va madaniy turlar genetik xilma-xilligini o‘rganish bo‘yicha I. Abdurakhmanov va boshq. (2014, 2016), Kushanov F.N. va boshq. (2022) kabi olimlar tomonidan molekulyar-genetik tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, avstraliya yovvoyi (*G. australe* F. Mull., *G. nelsonii* Fryx., *G. bickii* Prokh.) va afro-osiyo turlari (*G. herbaceum* L.) ni muhitning biotik va abiotik ta’sirlariga chidamli bo‘lgan noyob shakllaridan eksperimental poliploidiya usulini qo‘llash orqali yangi sintetik donorlar yaratishda ularning istiqbolini o‘rganish va navlarning genetik potensialini yanada kengaytirish va seleksiya jarayonlarida foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar kam olib borilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “*Gossypium* L. turkumining dunyoviy bioxilma-xilligi genetik potensialini o‘rganish va filogeniyaning klassik usullari asosida muhitning biotik va abiotik ta’sirlariga bardoshli donorlar yaratish” mavzusidagi davlat byudjeti asosida moliyalashtirilgan loyihasi ilmiy tadqiqotlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi g‘o‘zaning avstraliya yovvoyi turlari va afro-osiyo turichi xilma-xilliklarining molekulyar-filogenetik munosabatlarini baholash, genetik-seleksion potensialini hamda sintetik donorlar yaratishdagi istiqbolini aniqlashdan iborat.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2025 yildagi “Paxta xom ashyosini yetishtirish va sotishda bozor mexanizmlarini qo‘llashni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-7-sonli farmoni

Tadqiqotning vazifalari:

G. herbaceum L. va uning turichi bioxilma-xilliklari bilan avstraliya yovvoyi g'ozalarini o'zaro chatishtirish, ularning mutanosiblik darajasini va yangi duragay kombinatsiyalar olish imkoniyatlarini aniqlash;

eksperimental poliploidiya uslublari asosida allotetraploid duragaylar (F₁C) olish, olingan F₁C duragaylarda ota – ona shakllari bilan morfobiologik taqqoslash va sitogenetik tahlillar olib borish;

allotetraploid F₁C duragaylarni *G. hirsutum* L. turiga mansub mahalliy g'oz navlari bilan duragaylash orqali murakkab F₁ duragay shakllar olish;

allotetraploid duragaylar va *G. hirsutum* L. turiga mansub mahalliy g'oz navlarini o'zaro duragaylash asosida olingan murakkab F₁ duragaylarda morfobiologik va qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishini aniqlash va noyob boshlang'ich manbalar olish;

tadqiqot obyekti sifatida olingan boshlang'ich ashyolarni DNK markerlari yordamida filogenetik munosabatlarini tahlil qilish;

olingan genomlararo sintetik F₁, F₁C, F₂C duragaylarni qimmatli xo'jalik belgilariga birikkan DNK markerlari yordamida aniqlash;

genomlararo F₁, F₁C allopoliploid duragaylar hamda o'rta tolali mahalliy navlar ishtirokida olingan murakkab F₁ duragaylarining pushtsiz yoki qisman pushtsizlik sabablarini sitologik va embriologik tahlillar asosida aniqlash;

boshlang'ich manbalar va ular asosida olingan F₁, F₁C allopoliploid duragaylar hamda o'rta tolali mahalliy navlar ishtirokida olingan murakkab F₁ duragaylarining sanchib – so'ruvchi (*Aphis gossypii*, *Aleyrodidae*) zararkunanda hasharotlarga bardoshlilikini aniqlash va barglarini morfo-anatomik strukturasi tekshirish yordamida tasdiqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida *Gossypium* L. turkumining yovvoyi diploid G-genomli avstraliya turlari (Kenja turkum *Sturtia* (R. Br). Tod.ampl. Mauer, Kenja seksiya *Hibiscoidea* Tod.: *G. bickii* Prokh., *G. nelsonii* Fryx., *G. australe* F. Muell.; A₁-genomli polimorf diploid tur *G. herbaceum* L. va uning turichi bioxilma-xilliklari (Kenja turkum *Eugossypium* Tod. ampl. (Mauer); Seksiya. *Indica* Tod. ampl. (Mauer); Kenja seksiya. *Indica* Tod. em. (Mauer); tur: *G. herbaceum* L., kenja tur: subsp. *africanum* (Watt) Mauer.; madaniy shakl subsp. *euherbaceum* "A-256" navi hamda *G. hirsutum* L. turiga mansub Ravnaq-1, Ravnaq-2, Baraka navlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning predmeti turli genomli diploid turlarning morfobiologik xususiyatlari, qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishi va o'zgaruvchanlik xususiyatlari tahlillari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada g'oz genetikasi va seleksiyasining klassik usullaridan turlararo duragaylash, eksperimental poliploidiya, qiyosiy morfologiya, sitogenetika, embriologiya, anatomiya va molekulyar-genetikaning tadqiqot usullari hamda statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor, genomlararo duragaylash (G va A₁) natijasida, ularning xam geografik, xam genetik jihatdan uzoq turlar bo'lsada, o'zaro mutanosibligi, pushtli duragaylar olish imkoniyatining mavjudligi, *G. herbaceum* L. turining subsp. *pseudoarboreum*

kenja turi va subsp. *pseudoarboreum* f. *harga* shaklining avstraliya yovvoyi turlari *G. nelsonii* va *G. australe* turlariga filogenetik jihatdan nisbatan yaqinligi, subsp. *africanum* kenja turning esa uzoqligi aniqlangan;

genomlararo duragaylash va eksperimental poliploidiya natijasida, $2n=4x=52$ xromosomalar to'plamiga ega bo'lgan sintetik poligenom allotetraploid duragay shakllar (F_1C *G. herbaceum* subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii*; *G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* A-256 \times *G. nelsonii*) olingan ularning ploidlilik darajasi sitogenetik tahlillar asosida isbotlangan;

allopoliploid F_1C ($A_1 \times G$) duragaylar va *G. hirsutum* L. turiga mansub navlarni o'zaro chatishtirish asosida olingan murakkab F_1 [$(A_1 \times G) \times AD_1$] duragaylarida [(*G. herbaceum* subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii*) \times Ravnaq -1], [(*G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* A-256 \times *G. nelsonii*) \times Ravnaq -1] tola uzunligi to'liqsiz dominantlik, vegetatsiya davrining davomiyligi esa to'liq dominantlik holda irsiylanganligi aniqlangan;

Avstraliya yovvoyi turlari va Afro-Osiyo turichi xilma-xilliklari hamda madaniy *G. hirsutum* L. g'ozaga genetik polimorfizmi, filogenetik munosabatlariga aniqlik kirituvchi, filogenetik shajara daraxti tuzilgan;

molekulyar-genetik tahlillar asosida, genomlararo sintetik diploid F_1 va amfidiploid F_1C (*G. herbaceum* subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii*), (*G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* A - 256 \times *G. nelsonii*) duragaylarida SSR markerlari yordamida PZR tahlili amalga oshirilib, ularda ota-ona namunalardan o'tayotgan allellar mavjud ekanligi aniqlangan;

genomlararo ($A_1 \times G$) F_1 , F_1C duragaylar va o'rta tolali mahalliy navlar ishtirokida olingan murakkab F_1 [$(A_1 \times G) \times AD_1$] duragaylarda sitogenetik hamda embriologik tahlillar asosida ayrim sporogenetik va gametogenetik anomaliyalar (triada, pentada, geptada, mikroyadroli diada va tetradalar) aniqlangan;

morfologik va anatomik tadqiqotlar natijasida ota-onalik shakllari va ular ishtirokida olingan genomlararo ($A_1 \times G$) F_1 , F_1C (*G. herbaceum* subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii*) va F_1C (*G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* A-256 \times *G. nelsonii*) duragaylar, o'rta tolali mahalliy navlar ishtirokida olingan murakkab F_1 [$(A_1 \times G) \times AD_1$] duragaylarning sanchib-so'ruvchi hasharotlarga bardoshlilikiga baho berilgan, barglarning strukturaviy belgilari, ya'ni, abaksial kesimining strukturaviy tahliliga asosan sanchib-so'ruvchi (*Aphis gossypii*, *Aleyrodidae*) hasharotlarga bardoshlilikigi aniqlangan;

allopoliploid duragaylar (donor) va mahalliy Ravnaq-1 navi (retsipiyent) ishtirokida murakkab F_1 [(*G. herbaceum* subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii*) \times Ravnaq-1] va [(*G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* A-256 \times *G. nelsonii*) \times Ravnaq-1] duragaylar olish orqali sintetik allopoliploidlarning genetik-seleksion potentsiali isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yangi navlar yaratishdagi genetika va seleksiya tadqiqotlari uchun sanchib-so'ruvchi zararkunanda hasharotlar (*Aphis gossypii*, *Aleyrodidae*) va vilt patogeniga hamda qurg'oqchilik va sho'rga bardoshli, tolasi o'ta pishiq, mayin bo'lgan boshlang'ich manba sifatida F_2C *G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* \times *G. nelsonii* va F_2C *G. herbaceum* subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii* allopoliploid sintetik

duragaylar olingan;

molekulyar – genetik taxlillar natijasida, genomlararo sintetik diploid F_1 va allotetraploid F_1C ($A_1 \times G$) duragaylaridan tola sifati, fuzarioz va vertitsillioz vilt kasalligiga bardoshlilik kabi qimmatli xo‘jalik belgilariga genetik birikkan DNK markerlari yordamida kerakli lokuslariga ega namunalar aniqlangan;

turlararo duragaylash, eksperimental poliploidiya, sitogenetika, hamda molekulyar genetika uslublari majmuida olib borilgan keng miqiyosli tadqiqotlar natijasida, yovvoyi Avstraliya va Afro-Osiyo turlari turichi xilma-xilliklari xamda madaniy *G. hirsutum* L. g‘o‘za turlarining genetik jihatdan uzoq-yaqinlik darajasini xamda seleksiya uchun yangi genetik manbalar sifatida foydalanish imkoniyatini belgilab beruvchi filogenetik shajara daraxti tuzilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi genetika va seleksiya usullarining birgalikda qo‘llanilganligi, molekulyar genetika va sitogenetik hamda statistik tahlil usullari asosida olingan natijalarni yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, shuningdek, xulosalarning ilmiy va amaliy jihatdan isbotlanganligi, olingan noyob sintetik shakllarning Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutidagi “G‘o‘za genofondi” noyob obykti kolleksiyasida saqlanayotganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bir-biridan geografik va genetik uzoq, turli genomlarga xos bo‘lgan yovvoyi avstraliya va afro-osiyo turlarini o‘zaro duragaylanish imkoniyatlari, ularning filogenetik munosabatlari tadqiq etilganligi, molekulyar-genetik, sitogenetik, embriologik, anatomik va morfobiologik jixatdan chuqur tadqiq etilganligi, o‘rganilgan diploid g‘o‘za turlaridan allotetraploid genotiplar olish imkoniyatlari ko‘rsatib berilganligi, yovvoyi turlarning introgressiv duragaylar olishdagi genetik-seleksion potensialining aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turli biotik va abiotik omillarga bardoshli yovvoyi diploid g‘o‘za turlari ishtirokida madaniy tetraploid navlarning genomiga noyob genlarni introgressiya qilib, qimmatli xo‘jalik belgilari bilan boyitish, genomlararo (A_1, G) duragaylash va eksperimental poliploidiya usuli orqali olingan allotetraploid genotiplarni genetik-seleksion tadqiqotlarga jalb qilishda boshlang‘ich manba sifatida foydalanish uchun tavsiya etilganligi, AD genomli g‘o‘za navlariga duragaylash asosida noyob yangi, o‘zida turli xil genomli turlarning qimmatli belgilarini mujassamlashtirgan shakllar olinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi “G‘o‘zani genomlararo (A_1, G) duragaylash va AD genom asosida yangi donolar olish” bo‘yicha olingan natijalar asosida:

g‘o‘zaning F_1C (*G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* “A-256” \times *G. nelsonii*) poliploid duragay kombinatsiyasidan ajratib olingan namunalar urug‘lari O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutining “G‘o‘za genofondi” noyob obykti kolleksiyasiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024 yil 31 oktabr 4/1255-2427-son ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu allotetraploid duragaylar genetik-seleksion tadqiqotlar uchun boshlang‘ich ashyo sifatida tavsiya etilgan hamda g‘o‘za kolleksiyasi xilma-xilligini yanada boyitish imkonini bergan;

g'ozani turlararo duragaylash va eksperimental poliploidiyasidan O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida "FZ-2020100645 - Yovvoyi avstraliya turlarining afro-osiyo g'ozalari turichi xilma-xilliklari bilan o'zaro molekulyar-filogenetik munosabatlarini va qimmatli xo'jalik belgilarini o'rganish" mavzusidagi fundamental loyihasi ilmiy tadqiqotlarini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024 yil 2024-yil 31-oktabr № 4/1255-2426-son ma'lumotnomasi). Natijada, tolasining sifat ko'rsatkichlari yuqori, biotik va abiotik omillarga bardoshlilik xususiyatiga ega bo'lgan boshlang'ich manbalar genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanish bo'yicha amaliyotga tavsiya etish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 3 ta halqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 ta mahalliy va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati shartli belgilar va atamalar hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va ahamiyati asoslab berilgan, ishning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ishining Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishi ko'rsatilgan, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirigan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida "**Yovvoyi avstraliya va afro-osiyo g'ozalari turlarining filogeniyasi, genetik-seleksion ahamiyati va molekular-genetik asoslari**" bo'yicha dunyo miqyosidagi va respublikamiz olimlari tomonidan *Gossypium L.* turkumining *herbaceum* turichi xilma-xilliklari va avstraliya yovvoyi g'ozalari turlarining evolyutsiyasi va filogenetik munosabatlari, genetik – seleksion tadqiqotlar uchun sintetik donorlar olishda foydalanish imkoniyatlari, qimmatli xo'jalik belgilarini irsiylanishi bo'yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar batafsil bayon etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida "**Tadqiqot o'tkazish sharoiti, obyekt va uslublari**" tadqiqotlar olib borilgan joyi va sharoitlari, tadqiqot obyektlari, ularning tavsifi, tadqiqot o'tkazish uslublari, laboratoriya va dala sharoitida sitogenetika, embriologiya, anatomiya, eksperimental poliploidiya va molekular-genetika usullarini amalga oshirish borasidagi ishlar, olingan natijalarni tahlil qilish uchun qo'llanilgan statistik uslublar kabi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Avstraliya yovvoyi turlari (G) va *G. herbaceum L.* (A₁) turichi xilma-xilliklari hamda AD genom asosida olingan genomlararo**

duragaylarida morfobiologik va ayrim qimmatli belgilarining irsiylanishi” mavzusidagi uchinchi bobida A_1 va G genomga mansub bo‘lgan g‘o‘zaning yovvoyi diploid turlari ishtirokida o‘zaro genomlararo duragaylash ishlari olib borilganligi, hamda eksperimental poliploidiya uslubidan foydalanib qimmatli xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan yangi sintetik shakllar olinganligi, sintetik shakllar bilan o‘rta tolali mahalliy navlar ishtirokida uch xil genomni bir genotipda mujassamlashtirgan murakkab duragaylarning olinganligi va ularda qimmatli xo‘jalik belgilarining irsiylanishi hamda olingan F_1 , F_1C , F_2C hamda murakkab F_1 duragaylarning morfologik tasnifi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Bobning “Avstraliya yovvoyi turlari (G) va *G. herbaceum* L. (A_1) turichi xilmaxilliklarini o‘zaro duragaylash” nomli birinchi bo‘limida g‘o‘zani genomlararo duragaylash asosida o‘rganilayotgan kenja tur va shakllarning bir-biriga mutanosiblik darajalarini va turlararo duragaylar olish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida keng miqyosdagi chatishtirish ishlari olib borilgan bo‘lib, olingan genomlararo duragay ko‘saklarda to‘liq urug‘lar tugilish foizi tahlil qilingan.

G. herbaceum turining subsp. *pseudoarboreum* ruderal kenja tur vakili *G. nelsonii*, *G. australe*, *G. bickii* yovvoyi avstraliya turlari bilan chatishtirish natijasida bir qator duragay kombinatsiyalari olindi. Bunda duragay ko‘saklarning tugilishi 19,6 – 27,8 %, duragay ko‘saklardagi to‘liq urug‘lar tugilishi esa 54,3–66,7 % ni tashkil etdi. *G. nelsonii* × subsp. *pseudoarboreum* duragay kombinatsiyasida bu ko‘rsatkich juda past (23,7%) bo‘lganligi kuzatildi.

Aynan shu duragayning retseprok kombinatsiyasida duragay ko‘saklardagi to‘liq urug‘lar tugilishining o‘rtacha ko‘rsatkichi 62,4 % ni tashkil etganligi aniqlandi.

G. herbaceum subsp. *frutescens* × *G. nelsonii* kombinatsiyasida duragay ko‘saklar tugilishi 1,8 % ni, ulardagi to‘liq urug‘lar tugilishi esa 62,6 % ni tashkil etdi.

G. herbaceum subsp. *euherbaceum* (A-256) madaniy nav namunasini *G. nelsonii* turi bilan chatishtirish natijasida duragay ko‘saklar tugilishi 10,2 % ni, ulardagi to‘liq urug‘lar tugilishi esa 41,0 % ni tashkil etdi.

Bobning “Turlararo ($A_1 \times G$) F_1 duragaylarida eksperimental poliploidiya tadqiqotlarini olib borish va mahalliy o‘rta tolali navlar (AD_1) bilan o‘zaro duragaylash” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida turlararo ($A_1 \times G$) F_1 duragaylarida eksperimental poliploidiya tadqiqotlarini olib borish va mahalliy o‘rta tolali navlar (AD_1) bilan o‘zaro duragaylash bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotda bir necha xil genomlararo duragaylar olindi va kolxitsin ($C_{22}H_{25}NO_6$) alkaloidining 0,2% li eritmasi bilan ishlov berilib ularning xromosomalar to‘plami karrali oshirilgan amfidiploid F_1C (*G. herbaceum* subsp. *frutescens* × *G. nelsonii*) va F_1C (*G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* A-256 × *G. nelsonii*) duragaylar olishga erishildi.

F_1C (*G. herbaceum* subsp. *frutescens* × *G. nelsonii*) duragayi Ravnaq-1 (mahalliy) naviga 73 marta chatishtirilib, 2 ta nuqsonsiz ko‘sak olishga erishildi. Bunda, Ravnaq-1 navi ona genotip, F_1C duragay esa ota genotip sifatida ishtirok etgan bo‘lib, tugilish foizi 2,7 % ekanligi ma’lum bo‘ldi.

F_1C duragayi ona genotip hamda Ravnaq-1 navi ota genotip sifatida 128 marta

duragaylash amalga oshirildi va duragay ko'sak tugilish foizi 7,8 % ni tashkil etib, 10 dona ko'sak olishga erishildi.

Shuningdek, F₁C (*G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* A-256 × *G. nelsonii*) duragayi Ravnaq-1 navi bilan 178 marta chatishtirilib, 1 dona duragay ko'sak olishga erishildi. Duragay ko'sakning tugilish foizi shunga mos ravishda 0,6 % ni tashkil etdi. Bunda, Ravnaq-1 navi ota sifatida, F₁C duragay esa ona genotip sifatida ishtirok etgan. Ushbu juftlik 111 marta retsiprok, ya'ni, F₁C duragay ona hamda Ravnaq-1 navi ota genotip sifatida chatishtirilganda esa 5 dona duragay ko'sak olishga erishilib, mos ravishda, ko'sak tugilish foizi 4,0 % ga teng bo'ldi.

Bobning "F₁C allotetraploid duragaylar va Ravnaq-1 navi ishtirokida olingan murakkab F₁ duragaylar bilan bekkross duragaylash" deb nomlangan uchinchi bo'limida genomlararo allotetraploid F₁C duragaylari va mahalliy nav namunalari ishtirokida olingan murakkab F₁ duragaylardagi yovvoyilik xususitlarini kamaytirib borish uchun birinchi bekkross duragaylash ishlari olib borildi.

Murakkab F₁ duragaylarni bekkross duragaylanganda duragay ko'saklar olish ko'rsatkichi juda past natijani namoyon etdi (1-jadvalga qarang).


1- jadval

Genomlararo sintetik allotetraploid F₁C duragaylar va mahalliy nav namunalari ishtirokida olingan murakkab F₁ avlodlarda bekkross duragaylash

№	Genomlararo duragay kombinatsiyalar	Chatishtirishlar soni, dona	Tugilgan ko'saklar soni, dona	Nobud bo'lgan ko'saklar soni, dona		Chatishuvchanlik, %	To'liq urug'tugilish i, %
				15-25 kunda	25-35 kunda		
1	Ravnaq-1 × [(subsp. <i>frutescens</i> × <i>G. nelsonii</i>) × Ravnaq-1]	321	30	20	7	0,9	0,92
2	[(subsp. <i>frutescens</i> × <i>G. nelsonii</i>) × Ravnaq-1] × Ravnaq-1	147	10	8	0	1,36	5,4
3	Ravnaq-1 × [(subsp. <i>euherbaceum</i> A-256 × <i>G. nelsonii</i>) × Ravnaq-1]	311	25	17	4	1,28	6,25
4	[(subsp. <i>euherbaceum</i> A-256 × <i>G. nelsonii</i>) × Ravnaq-1] × Ravnaq-1	139	11	9	2	0	0
5	Ravnaq-2 × [(subsp. <i>frutescens</i> × <i>G. nelsonii</i>) × Ravnaq-1]	301	34	20	12	0,66	9,72
6	[(subsp. <i>frutescens</i> × <i>G. nelsonii</i>) × Ravnaq-1] × Ravnaq-2	133	15	14	1	0	0
7	Ravnaq-2 × [(subsp. <i>euherbaceum</i> A-256 × <i>G. nelsonii</i>) × Ravnaq-1]	342	31	21	8	0,58	8,96
8	[(subsp. <i>euherbaceum</i> A-256 × <i>G. nelsonii</i>) × Ravnaq-1] × Ravnaq-2	111	5	5	0	0	0
9	Baraka × [(subsp. <i>frutescens</i> × <i>G. nelsonii</i>) × Ravnaq-1]	341	28	15	9	1,17	6,4
10	[(subsp. <i>frutescens</i> × <i>G. nelsonii</i>) × Ravnaq-1] × Baraka	118	4	4	0	0	0
11	Baraka × [(subsp. <i>euherbaceum</i> A-256 × <i>G. nelsonii</i>) × Ravnaq-1]	316	35	21	11	0,94	10
12	[(subsp. <i>euherbaceum</i> A-256 × <i>G. nelsonii</i>) × Ravnaq-1] × Baraka	132	11	11	0	0	0

Bobning "Turlararo (A₁ × G) F₁, F₁C, F₂C hamda [(A₁ × G) × AD₁] murakkab F₁ duragaylarida ayrim belgilarning irsiylanishi va o'zgaruvchanlikning morfologik

tavsifi” deb nomlangan to‘rtinchi bo‘limida turlararo ($A_1 \times G$) F_1 , F_1C , F_2C hamda $[(A_1 \times G) \times AD_1]$ murakkab F_1 duragaylarida ayrim belgilarning irsiylanishi va o‘zgaruvchanlikning morfologik tasnifi o‘rganildi. Morfologik kuzatuvlar natijasida, *G. herbaceum* L. turi va turichi xilma-xilliklari hamda avstraliya yovvoyi g‘o‘za turlari asosida olingan F_1 va F_1C avlod o‘simliklari morfologik belgilari bo‘yicha ota-ona shakllariga nisbatan asosan oraliq holatda irsiylanishi aniqlandi. Ba‘zi holatlarda duragay o‘simlik ayrim morfologik belgilari bo‘yicha ota-ona shakllaridan biriga yaqinroq bo‘lgan, ayrim holatlarda yangi belgilar yuzaga chiqqanligi kuzatildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. A ♀- diploid *G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* A-256; ♂- diploid *G. nelsonii*. B ♀ - diploid *G. herbaceum* subsp. *frutescens*; ♂ - diploid *G. nelsonii*; F_1 – duragay; F_1C -allotetraploid duragay; a – guli; b - bargi; c – ko‘sagi; d – ochilgan paxta.

Mazkur bobning “Genomlararo $[(A_1 \times G) \times AD_1]$ murakkab F_1 duragaylarining morfobiologik tavsifi” deb nomlangan beshinchi bo‘limida genomlararo $[(A_1 \times G) \times AD_1]$ murakkab F_1 duragaylarining morfologik belgilari o‘rganildi. F_1 $[(G. herbaceum$ subsp. *euherbaceum* A-256 \times *G. nelsonii*) \times *G. hirsutum* subsp. *euherbaceum* Ravnaq-1] va F_1 $[(G. herbaceum$ subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii*) \times *G. hirsutum* subsp. *euherbaceum* Ravnaq-1] murakkab duragaylari o‘simliklarining poyasi tik o‘sovchan, tarvaqaylagan, shaklida ekanligi kuzatildi. Ushbu duragaylarda shohlanish tipi, barg shakli, poya va bargning tuklanishi, gultojbarg rangi, gul shakli, gulkosabargi, changchi va changdonlari, ko‘sak shakli hamda tola rangi kabi morfologik belgilari tavsiflandi.

Shuningdek, bobning “Ota – ona namunalari, turlararo ($A_1 \times G$) F_1 , F_1C hamda murakkab $[AD_1 \times (A_1 \times G)]$ F_1 duragaylarining vegetatsiya davri davomiyligi” deb nomlangan oltinchi bo‘limida ota – ona namunalari, turlararo ($A_1 \times G$) F_1 , F_1C hamda murakkab $[AD_1 \times (A_1 \times G)]$ F_1 duragaylarining vegetatsion davri davomiyligi kuzatildi. Kuzatishlar natijasiga ko‘ra, ota-ona namunalari vegetatsion davr davomiyligi $117,2 \pm 0,4$ dan $142,9 \pm 0,4$ kungacha teng bo‘ldi.

F_1C *G. herbaceum* subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii* amfidiploid duragayida vegetatsiya davri davomiyligi $123,4 \pm 0,4$ kunni tashkil etdi. O‘zgaruvchanlik amplitudasi 120-125 ga teng bo‘lib, dominantlik koeffisienti $hp = -0,31$ ekanligi ma‘lum bo‘ldi. F_1C *G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* A-256 \times *G. nelsonii*

allotetraloid duragayida esa vegetatsion davri davomiyligi $128,1 \pm 0,6$ kunni, o'zgaruvchanlik amplitudasi 125–131, dominantlik koeffisienti $h_p = -9,0$ ekanligi ma'lum bo'ldi.

F_2C (*G. herbaceum* subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii*) duragayining vegetatsiya davri davomiyligi $120,3 \pm 2,6$ kun (o'zgaruvchanlik amplitudasi 110-135) ni tashkil qildi. Irsiylanish darajasi $h^2 = 0,97$ ga teng bo'ldi. F_2C (*G. herbaceum* ssp *euherbaceum* A-256 \times *G. nelsonii*) duragayining vegetatsiya davri davomiyligi $127,9 \pm 1,7$ (o'zgaruvchanlik amplitudasi 123-137) kunni, irsiylanish darajasi $h^2 = 0,90$ ga teng bo'ldi. Genomlararo allopoliploid duragaylar va o'rta tolali mahalliy nav namunalari ishtirokda olingan murakkab F_1 duragaylarida vegetatsion davri davomiyligi $116,7 \pm 1,2$ va $121,6 \pm 0,9$ kun davom etgan. Bunga mos ravishda esa mazkur hususiyat bo'yicha dominantlik koeffisienti $h_p = -2,01$, $h_p = -2,51$ ga teng ekanligi kuzatildi.

Bobning "Boshlang'ich manbalar va F_1C , F_2C allopoliploid duragay shakllarda urug' tugulish ko'rsatkichlari" deb nomlangan yettinchi bo'limida boshlang'ich manbalar va F_1C , F_2C allopoliploid duragay shakllarda urug' tugulish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Bunga ko'ra ota - ona namunalarda $88,1 \pm 1,3\%$ dan $95 \pm 1,3\%$ gacha, F_1C (*G. herbaceum* subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii*) allopoliploid duragayida $62,2 \pm 1,0\%$, F_1C (*G. herbaceum* subsp *euherbaceum* A-256 \times *G. nelsonii*) allotetraploid duragayida esa $67,6 \pm 1,5\%$ ekanligi ma'lum bo'ldi.


Shuningdek, ikkinchi avlod duragay (*G. herbaceum* subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii*), (*G. herbaceum* subsp *euherbaceum* A-256 \times *G. nelsonii*) larida to'liq urug'lar tugulish ko'rsatkichlari $65,3 \pm 4,3$ va $70,4 \pm 3,1\%$ foiz ekanligi ma'lum bo'ldi.

Bobning "Boshlang'ich manbalar va F_1C , F_2C allopoliploid duragay shakllarda tola uzunligi belgisining irsiylanishi deb nomlangan" sakkizinchi bo'limida tola uzunligining irsiylanishi bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. A_1 va G genom vakillarining tola uzunligi turlicha bo'lib, afro-osiyo g'o'za kenja turlarining (subsp. *frutescens*, subsp. *euherbaceum* A-256) tola uzunligi 19,1-27,3 mm, yovvoyi avstraliya turi *G. nelsonii* ning tola uzunligi 7,6 mm. *G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* A-256 \times *G. nelsonii* allopoliploid duragay o'simliklarida tola uzunligi $18,3 \pm 1,2$ mm o'zgaruvchanlik amplitudasi 17-19 mm ni tashkil etib, mazkur belgining to'liqsiz dominantlik, xolatida ($h_p = 0,1$) irsiylanishi qayd etildi. F_1C *G. herbaceum* subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii* allopoliploid duragayida esa tola uzunligi $15,1 \pm 0,2$ mm, o'zgaruvchanlik amplitudasi 14-16 mm bo'lib variatsiya koeffisienti 3,7% ni tashkil etdi.

F_1C allopoliploid duragaylari va o'rta tolali mahalliy nav namunasi ishtirokida tola uzunligi 20-22 mm ga teng bo'lgan murakkab F_1 duragaylar [*G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* A-256 \times *G. nelsonii*] \times Ravnaq], [*G. herbaceum* subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii*] \times Ravnaq] olishga muvaffaq bo'ldik.

Ushbu murakkab F_1 duragaylarni o'rta tolali mahalliy navlar bilan tahliliy (bekkross) chatishtirish natijasida tola uzunligi 25-26 mm bo'lgan duragaylar olishga erishdik (2-rasmga qarang).

Ikkinchi avlod duragaylarida (*G. herbaceum* subsp. *frutescens* \times *G. nelsonii*) esa tola uzunligi ko'rsatkichlari $20,6 \pm 0,9$ mm, belgining o'zgaruvchanlik ko'lamini 15-25 mm ni tashkil etdi. Tola uzunligining nasldan - naslga berilish koeffisienti




2-rasm. Ota - ona, va ular ishtirokida olingan duragaylarda tola uzunligining irsiylanishi A (♀ *G. herbaceum* subsp. *frutescens*; ♂ *G. nelsonii*; F₁C (*G. herbaceum* subsp. *frutescens* × *G. nelsonii*), B (♀ *G. herbaceum* subsp. *frutescens* × *G. nelsonii*; ♂ *G. hirsutum* ; F₁ [(*G. herbaceum* subsp. *frutescens* × *G. nelsonii*) × Ravnaq], C (♀ [(*G. herbaceum* subsp. *frutescens* × *G. nelsonii*) × Ravnaq]; ♂ Ravnaq ; BS₁F₁ [(*G. herbaceum* subsp. *frutescens* × *G. nelsonii*) × Ravnaq]

$h^2=0,94$ tashkil etib, bu esa o'z navbatida o'rganilgan belgining 94 % duragay shaklining genotipi, 6 % esa tashqi muhit ta'sirida irsiylanganligidan dalolat beradi. F₂C *G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* A-256 × *G. nelsonii* allopolyploid duragayining ikkinchi avlodida xam mazkur belgining nasldan naslga berilishi, ya'ni, genetik meros dispersiyasining ($h^2=0,94$) ekanligi ma'lum bo'ldi. Bunga mos ravishda tola uzunligi $23,6 \pm 0,9$ mm, o'zgaruvchanlik ko'lami 18-28 mm, variatsiya koeffitsienti 12,5% ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning “*G. herbaceum* L. va Avstraliya yovvoyi turlari hamda AD₁ genom ishtirokida olingan duragaylarda sitogenetik, embriologik va molekulyar genetik tahlillar” mavzusidagi to'rtinchi bobida tadqiqotda foydalanilgan *G. herbaceum* L. va yovvoyi avstraliya turlari hamda ular asosida olingan genomlararo duragaylarda sitogenetik, embriologik va molekulyar genetik tahlillar olib borilgan.

Mazkur bobning “Sitogenetik tahlillar” nomli birinchi bo'limida sitogenetik tahlillar olib borildi. Tadqiqotlarimiz davomida A₁ va G genom vakillarini chatishtirish orqali olingan allotetraploid duragaylarida xromosomalar to'plamining karra oshganligini aniqlash maqsadida mitoz jarayonlari o'rganildi (3-rasmga qarang).




3-rasm. Mitozning profaza bosqichi. a-26 ta xromosoma to'rlamiga ega bo'lgan F₁ duragay, b-kolxitsin ta'sirida bo'lgan duragay, s-xromosoma to'plami karrali oshgan F₂C duragayida xromosomalar to'plami

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, F₁ (*G. herbaceum* subsp. *frutescens* × *G. nelsonii*), (*G. herbaceum* subsp. *euherbaceum* × *G. nelsonii*) duragay o'simliklari diploid xromosomalar to'plamiga ($2n=2x=26$) ega. F₁C va F₂C duragaylari


allopoliploid shakl ($2n=4x=52$) ekanligi isbotlandi.

